



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№3

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

3-jild
3-son
March, 2026

February, 2026
Volume 3
Number 3

**ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА**
**Научно-практический
электронный журнал**

INNOVATIVE ECONOMY
**Electronic scientific and
practical journal**



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik (Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor)

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)
Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)
Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)
Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)
Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)
Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)
Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)
Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)
Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)
Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)
Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)
Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)
Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)
Неземайкин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)
Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)
Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик
Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор
Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор
Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор
Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор
Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор
Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент
Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор
Якубова Шамишнур Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент
Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент
Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент
Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Эрашиева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент
Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент
Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент
Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)
Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)
Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)
Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
Economy of the region and industry
Экономика региона и отрасли



MINTAQA OZIQ-OVQAT SANOAT KORXONALARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Xo'jamov Jamshid To'xtamurodovich

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕГИОНАЛЬНОЙ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Ходжамов Жамшид Тўхтамуродович

IMPROVING THE EFFICIENCY OF REGIONAL FOOD INDUSTRY ENTERPRISES

Khodjamov Jamshid Toxtamurodovich

Received: March 5, 2026 Revised: March 9, 2026 Accepted: March 15, 2026 Published: April 1, 2026

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintqa oziq-ovqat sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari o'rganilgan. Tadqiqotda O'zbekistonning ayrim mintaqalaridagi oziq-ovqat sanoati korxonalarining 2019–2024 yillar davomidagi faoliyati tahlil qilingan. IMRAD (Introduction, Methods, Results, and Discussion) ilmiy maqola yozish standarti asosida tizimli yondashuv qo'llanilgan. Korrelyatsion-regressiya tahlili, SWOT-tahlil, klaster tahlili va ekspert so'rovi metodlari yordamida mintqa oziq-ovqat sanoati korxonalarining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari baholangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, texnologik modernizatsiya, xom ashyo bazasini diversifikatsiya qilish va inson resurslarini rivojlantirish korxonalar samaradorligining eng muhim omillari hisoblanadi. Tadqiqot natijalari asosida mintqa oziq-ovqat sanoati korxonalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat sanoati, samaradorlik, mintaqaviy iqtisodiyot, modernizatsiya, diversifikatsiya, SWOT-tahlil, korrelyatsion-regressiya tahlili, klaster tahlili, inson resurslari, innovatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы повышения экономической эффективности предприятий пищевой промышленности в регионе. В исследовании проанализирована деятельность предприятий пищевой промышленности в некоторых регионах Узбекистана за 2019–2024 годы. Использован систематический подход, основанный на стандарте написания научных статей IMRAD (Введение, Методы, Результаты и Обсуждение). Основные показатели эффективности предприятий пищевой промышленности в регионе оценивались с помощью корреляционно-регрессионного анализа, SWOT-анализа, кластерного анализа и экспертной оценки. Результаты показывают, что наиболее важными факторами эффективности предприятий являются технологическая модернизация, диверсификация сырьевой базы и развитие человеческих ресурсов. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации по повышению эффективности предприятий пищевой промышленности в регионе.

Ключевые слова: пищевая промышленность, эффективность, региональная экономика, модернизация, диверсификация, SWOT-анализ, корреляционно-регрессионный анализ, кластерный анализ, человеческие ресурсы, инновации.

Abstract: This article examines the issues of improving the economic efficiency of regional food industry enterprises. The study analyzed the activities of food industry enterprises in selected regions of Uzbekistan during 2019–2024. A systematic approach was applied based on the IMRAD (Introduction, Methods, Results, and Discussion) scientific writing standard. The main efficiency indicators of regional food industry enterprises were assessed using correlation-regression analysis, SWOT analysis, cluster analysis, and expert survey methods. The results show that technological modernization, diversification of the raw material base, and human resource development are the most important factors of enterprise efficiency. Based on the research findings, practical recommendations aimed at improving the efficiency of regional food industry enterprises were developed.

Keywords: food industry, efficiency, regional economy, modernization, diversification, SWOT analysis, correlation-regression analysis, cluster analysis, human resources, innovation.

■ KIRISH

Oziq-ovqat sanoati har qanday mamlakatning iqtisodiy tizimida muhim o'rin tutadi. Aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash davlatning

strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 2017–2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida hamda 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot



strategiyasida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shu bois, mintaqa oziq-ovqat sanoati korxonalarining samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Jahon oziq-ovqat sanoati so'nggi o'n yillikda sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda. FAO (Oziq-ovqat va qishloq xo'ligi tashkiloti) ma'lumotlariga ko'ra, global oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmi 2015–2023 yillarda yiliga o'rtacha 2,3 foizga o'sgan. Biroq, bu o'sish mintaqalar kesimida notekis taqsimlangan bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlarda samaradorlik ko'rsatkichlari rivojlangan mamlakatlarga nisbatan past bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda oziq-ovqat sanoatining YaIMdagi ulushi 2024 yilga kelib taxminan 8–9 foizni tashkil etgan bo'lib, bu soha mamlakatning iqtisodiy barqarorligida muhim omil hisoblanadi. Biroq, mintaqaviy oziq-ovqat korxonalari bir qator muammolarga duch kelmoqda: eskirgan texnologiyalar, xom ashyo bazasining beqarorligi, malakali kadrlar etishmasligi, logistika infratuzilmasining etarli darajada rivojlanmaganligi va boshqalar.

Mintaqa oziq-ovqat sanoati korxonalarining samaradorligini oshirish quyidagi sabablarga ko'ra dolzarb hisoblanadi. Birinchidan, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi yildan-yilga ortib bormoqda. O'zbekiston aholisi 2024 yilga kelib 36 milliondan oshgan bo'lib, bu holat ichki bozordagi talabning barqaror o'sishini ta'minlamoqda. Ikkinchidan, import o'rnini bosish siyosati doirasida mahalliy ishlab chiqarishni kuchaytirish zarurati ortmoqda. Uchinchidan, eksport salohiyatini oshirish uchun raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish talab etilmoqda.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Oziq-ovqat sanoati samaradorligi masalasi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. M. Porter (1990) raqobatbardoshlik nazariyasida sanoat klasterlari va innovatsion muhitning korxonalar samaradorligiga ta'sirini asoslab bergan. J. Schumpeter (1942) innovatsiyalarning iqtisodiy o'sishdagi rolini ta'kidlagan bo'lib, uning g'oylari oziq-ovqat sanoatiga ham to'g'ri keladi.

MDH davlatlarida bu yo'nalishda V.A. Goncharov (2018), N.I. Petrova (2020) va boshqa olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda esa A.V. Vahobov (2019), B.A. Xasanov (2021), D.G'. Goipova (2022) kabi olimlar oziq-ovqat sanoati samaradorligi bo'yicha ilmiy ishlar olib borgan. Biroq, mintaqaviy darajada oziq-ovqat sanoati korxonalarining samaradorligini kompleks baholash va

oshirish strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar etarli emas.

■ TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida miqdoriy va sifat usullarini o'zida mujassam etgan aralash metodologiya (mixed-methods approach) qo'llanildi. Mazkur yondashuv tadqiqot ob'ektini kompleks o'rganish, statistik ma'lumotlar tahlili hamda respondentlarning fikr-mulohazalarini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot 2019–2024 yillar davrini qamrab olib, O'zbekistonning Toshkent, Samarqand, Farg'ona va Buxoro viloyatlarida faoliyat yuritayotgan yirik va o'rta oziq-ovqat sanoati korxonalari tanlab olingan.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda ikkilamchi va birlamchi ma'lumotlar manbalaridan foydalanildi. Ikkilamchi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda hududiy statistika boshqarmalarining rasmiy statistik hisobotlari va analitik ma'lumotlari asosida shakllantirildi. Ushbu ma'lumotlar oziq-ovqat sanoatining ishlab chiqarish hajmi, iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda hududiy rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotda quyidagi tahliliy usullar qo'llanilgan:

Korrelyatsion-regressiya

tahlili.

Samaradorlikka ta'sir etuvchi omillarning bog'liqlik darajasini aniqlash maqsadida ko'p omilli regressiya modeli qurilgan. Umumiy model quyidagicha ifodalangan:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \beta_4 X_4 + \beta_5 X_5 + \varepsilon$$

bu erda: Y – korxona samaradorligi ko'rsatkichi (rentabellik); X_1 – texnologik jihozlanganlik darajasi; X_2 – xom ashyo ta'minoti barqarorligi; X_3 – mehnat unumdorligi; X_4 – innovatsion faollik indeksi; X_5 – boshqaruv samaradorligi; ε – tasodifiy xatolik.

SWOT-tahlil.

Mintaqa oziq-ovqat sanoati korxonalarining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarini tizimli baholash uchun qo'llanilgan. SWOT-tahlil natijalari asosida strategik yo'nalishlar aniqlangan.

Klaster tahlili.

Korxonalarni samaradorlik darajasiga ko'ra guruhlash maqsadida iyerarxik klaster tahlili (Ward usuli) qo'llanilgan. Bu usul korxonalarni yuqori, o'rta va past samaradorlikli guruhlariga ajratish imkonini berdi.

Tadqiqot davri mobaynida mintaqa oziq-ovqat sanoati korxonalarining faoliyatida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. 1-jadvalda tadqiqot olib borilgan viloyatlar bo'yicha oziq-ovqat sanoatining asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval

Mintaqa oziq-ovqat sanoatining asosiy ko'rsatkichlari⁶ (2024 yil)

Viloyat	Korxonalar soni	Ishlab chiqarish hajmi (mlrd so'm)	Bandlik (ming kishi)	Rentabellik (%)
Toshkent	187	4 850,3	28,4	14,2
Samarqand	124	2 760,8	16,7	11,8
Farg'ona	156	3 420,5	21,3	12,5
Buxoro	89	1 580,2	9,8	9,6
Jami / O'rtacha	556	12 611,8	76,2	12,0

⁶ O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Toshkent viloyati korxonalar soni, ishlab chiqarish hajmi va rentabellik bo'yicha etakchi o'rinni egallaydi. Buxoro viloyati esa barcha ko'rsatkichlar bo'yicha eng past natijalarni ko'rsatmoqda. Bu tafovut asosan infratuzilma rivojlanganligi, xom ashyo bazasining qulayligi va investitsiya muhitining farqlanishi bilan izohlanadi.

Ko'p omilli regressiya tahlili natijalari 2-jadvalda keltirilgan. Model umumiy mosligi yuqori bo'lib, determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,847$ ni tashkil etgan. Bu shuni anglatadiki, tanlangan beshta omil samaradorlik o'zgarishlarining 84,7 foizini tushuntiradi. Fisher mezonining qiymati $F = 42,38$ ($p < 0,001$) bo'lib, model statistik jihatdan yuqori darajada ishonchli hisoblanadi.

2-jadval

Ko'p omilli regressiya tahlili natijalari⁷

O'zgaruvchi	β koeffitsiyent	Standart xatolik	t-qiymat	p-qiymat
X1 – Texnologik jihozlanganlik	0,342	0,058	5,897	< 0,001
X2 – Xom ashyo ta'minoti	0,287	0,064	4,484	< 0,001
X3 – Mehnat unumdorligi	0,218	0,051	4,275	< 0,001
X4 – Innovatsion faollik	0,196	0,072	2,722	0,009
X5 – Boshqaruv samaradorligi	0,153	0,068	2,250	0,029

Izoh: $R^2 = 0,847$; $F = 42,38$ ($p < 0,001$); $n = 48$.

Tahlil natijalariga ko'ra, texnologik jihozlanganlik darajasi ($\beta = 0,342$; $p < 0,001$) samaradorlikka eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omil ekanligi aniqlandi. Xom ashyo ta'minoti barqarorligi ($\beta = 0,287$; $p < 0,001$) ikkinchi o'rinda turadi. Mehnat unumdorligi ($\beta = 0,218$; $p < 0,001$), innovatsion faollik

($\beta = 0,196$; $p = 0,009$) va boshqaruv samaradorligi ($\beta = 0,153$; $p = 0,029$) ham statistik jihatdan ishonchli omillar sifatida aniqlandi.

Ward usuli yordamida olib borilgan iyerarxik klaster tahlili natijasida 48 ta korxona uchta klasterga ajratildi. 3-jadvalda klasterlarning asosiy tavsiflari keltirilgan.

3-jadval

Klaster tahlili natijalari⁸

Klaster	Korxonalar soni	O'rtacha rentabellik (%)	Texnologik jihozlanganlik indeksi	Innovatsion faollik indeksi
1-klaster (Yuqori samaradorlik)	12	16,8	0,82	0,76
2-klaster (O'rta samaradorlik)	21	11,4	0,58	0,49
3-klaster (Past samaradorlik)	15	7,2	0,31	0,22

O'tkazilgan klaster tahlili natijalari oziq-ovqat sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligi darajasi ularning texnologik jihozlanganlik darajasi va innovatsion faolligi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Tahlil natijalariga ko'ra, yuqori samaradorlikka ega korxonalar guruhi (1-klaster) texnologik jihozlanganlik va innovatsion faoliyat indeksleri bo'yicha boshqa klasterlarga nisbatan sezilarli ustunlikka ega ekanligi aniqlandi. Xususan, 1-klasterga mansub korxonalarning o'rtacha rentabellik darajasi 16,8 foizni tashkil etgan, bu esa past samaradorlikka ega korxonalar jamlangan 3-klaster ko'rsatkichidan 2,3 baravar yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, texnologik jihozlanganlik indeksi bo'yicha 1-klaster va 3-klaster o'rtasidagi tafovut 2,6 baravarni tashkil etadi, bu esa ishlab chiqarish

jarayonida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish korxona faoliyati samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omillardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori samaradorlikka ega korxonalar odatda innovatsion faoliyatga ko'proq investitsiya kiritadi, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qiladi hamda boshqaruvda zamonaviy texnologik echimlardan foydalanadi. Mazkur holat texnologik modernizatsiya va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mintaqa oziq-ovqat sanoati korxonalarining SWOT-tahlili quyidagi asosiy natijalarni berdi.

⁷ Muallif ishlanmasi

⁸ Muallif ishlanmasi

Mintaqa oziq-ovqat sanoati korxonalarining SWOT-tahlili

Kuchli tomonlar (Strengths) – Boy xom ashyo resurslari bazasi – Ichki bozorning keng ko‘lami – Arzon ishchi kuchi mavjudligi – Davlat qo‘llab-quvvatlash dasturlari	Zaif tomonlar (Weaknesses) – Eskirgan texnologiyalar – Malakali kadrlar etishmasligi – Logistik infratuzilma zaifligi – Sifat nazorati tizimlarining past darajasi
Imkoniyatlar (Opportunities) – Eksport bozorlarini kengaytirish – Xorijiy investitsiyalarni jalb etish – Raqamli texnologiyalarni joriy etish – Klaster yondashuvini rivojlantirish	Tahdidlar (Threats) – Xalqaro bozordagi raqobat kuchayishi – Iqlim o‘zgarishlarining xom ashyoga ta‘siri – Xom ashyo narxlarining beqarorligi – Normativ-huquqiy bazadagi o‘zgarishlar

Olingan natijalar mavjud ilmiy adabiyotlar bilan solishtirilganda bir nechta muhim xulosalar chiqarish mumkin. Birinchidan, texnologik jihozlanganlikning samaradorlikka eng kuchli ta‘sir ko‘rsatishi M.Porter (1990)ning raqobatbardoshlik nazariyasidagi texnologik innovatsiyalarning ahamiyati to‘g‘risidagi fikrlarini tasdiqlaydi. Shuningdek, bu natija V.A.Goncharov (2018)ning MDH davlatlari oziq-ovqat sanoatida texnologik modernizatsiya zarurligi haqidagi xulosalari bilan ham mos keladi. Ikkinchidan, xom ashyo ta‘minoti barqarorligining ikkinchi muhim omil sifatida aniqlanganligi D.G‘.Goipova (2022)ning O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatida xom ashyo bazasini mustahkamlash zarurligi to‘g‘risidagi tadqiqot natijalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Biroq, bizning tadqiqotimizda xom ashyo ta‘minotining ta‘sir darajasi ($\beta = 0,287$) Goipova tadqiqotidagi ko‘rsatkichdan ($\beta = 0,35$) biroz past bo‘lib chiqdi. Bu farq tadqiqot ob‘yektlarining geografik qamrovi va davr farqi bilan izohlanishi mumkin. Uchinchidan, klaster tahlili natijalari J.Schumpeter (1942)ning innovatsion faollikning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini ta‘kidlovchi nazariyasini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Yuqori samaradorlikli korxonalar innovatsion faollik indeksi bo‘yicha past samaradorlikli korxonalardan 3,5 marta ustunlikka ega ekanligi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari bir nechta amaliy jihatdan muhim xulosalar beradi. Texnologik modernizatsiya eng ustuvor yo‘nalish sifatida aniqlanganligi sababli, davlat va xususiy sektor hamkorligida texnologik yangilanish dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Xususan, oziq-ovqat sanoatida raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va zamonaviy qayta ishlash usullarini joriy etish samaradorlikni sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Xom ashyo bazasini diversifikatsiya qilish bo‘yicha qishloq xo‘ligi bilan oziq-ovqat sanoati o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish zarur. Shartnomaviy dehqonchilik tizimini kengaytirish, mahalliy xom ashyo etkazib beruvchilar bilan uzoq muddatli hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish va xom ashyo saqlash infratuzilmasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Inson resurslarini rivojlantirish bo‘yicha oziq-ovqat sanoati mutaxassislarini tayyorlash tizimini <https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

takomillashtirish lozim. Oliy ta‘lim muassasalari va sanoat korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, malaka oshirish kurslarini tashkil etish va xorijiy tajriba almashish dasturlarini yo‘lga qo‘yish samarali chora-tadbirlar hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda mintaq oziq-ovqat sanoati korxonalarining samaradorligini oshirish masalasi kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarga olib keldi.

Birinchidan, mintaq oziq-ovqat sanoati korxonalarining samaradorligiga eng kuchli ta‘sir ko‘rsatuvchi omil texnologik jihozlanganlik darajasi ($\beta = 0,342$) hisoblanadi. Texnologik modernizatsiya samaradorlikni oshirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida aniqlandi.

Ikkinchidan, xom ashyo ta‘minoti barqarorligi ($\beta = 0,287$) va mehnat unumdorligi ($\beta = 0,218$) samaradorlikning muhim omillari bo‘lib, ular bilan bog‘liq muammolarni hal etish korxonalar faoliyatini yaxshilashga sezilarli hissa qo‘shadi.

Uchinchidan, klaster tahlili natijalariga ko‘ra, yuqori samaradorlikli korxonalar texnologik jihozlanganlik va innovatsion faollik bo‘yicha past samaradorlikli korxonalardan keskin farq qiladi, bu texnologiya va innovatsiyaga investitsiya kiritish zarurligini tasdiqlaydi.

To‘rtinchidan, SWOT-tahlil natijalari mintaq oziq-ovqat sanoatining kuchli salohiyatga ega ekanligini, biroq bu salohiyatni to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun tizimli islohotlar va strategik yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

korxonalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqish;

qishloq xo‘ligi va oziq-ovqat sanoati o‘rtasidagi integratsiyani mustahkamlash;

malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;

mintaqaviy oziq-ovqat klasterlarini shakllantirish; sifat boshqaruvi tizimlarini (ISO, HACCP) keng joriy etish.



Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Xo'jamov Jamshid To'xtamurodovich Qarshi davlat texnika universiteti assistenti / Ходжамов, Жамшид Тўхтамуродович ассистент Каршинского государственного технического университета / Khodjamov Jamshid Toxtamurodovich assistant of Karshi State Technical University

E-mail: jamshid_khujamov@mail.ru

ORCID: 0009-0005-3606-684X

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Goncharov, V.A. (2018). Oziq-ovqat sanoatida samaradorlikni oshirish strategiyalari. Moskva: Ekonomika nashriyoti. 284 b.

2. Goipova, D.G'. (2022). O'zbekiston oziq-ovqat sanoatida xom ashyo bazasini mustahkamlash yo'llari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, 3(49), 45–56.

3. Petrova, N.I. (2020). Mintaqaviy oziq-ovqat tizimlarining barqarorligi. Sankt-Peterburg: Piter nashriyoti. 312 b.

4. Porter, M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press. 896 p.

5. Schumpeter, J.A. (1942). Capitalism, Socialism and Democracy. New York: Harper & Brothers. 431 p.

6. Vahobov, A.V. (2019). O'zbekistonda oziq-ovqat sanoatining iqtisodiy samaradorligini baholash. Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 2(14), 78–92.

7. Xasanov, B.A. (2021). Oziq-ovqat xavfsizligi va sanoat samaradorligi: O'zbekiston tajribasi. Toshkent: Fan nashriyoti. 246 b.

8. FAO. (2023). The State of Food and Agriculture 2023. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.

9. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. (2024). O'zbekiston sanoati: statistik to'plam. Toshkent.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz